



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI SENATI KENGASHINING QARORI

“Tashabbusli budget jarayonlarini o‘tkazish hamda moliyalashtirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan keng ko‘lamli islohotlarni samarali amalga oshirish, xalqimizning kundalik hayotida ijobiy o‘zgarishlarga erishish bo‘yicha tizimli harakatlarni izchil davom ettirish maqsadida “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonunining 16-moddasiga asosan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Kengashi

Q A R O R Q I L A D I :

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 25-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–455-sonli Qaroriga asosan Tashabbusli budget jarayoni uchun tuman (shahar)larda ajratiladigan mablag‘lar miqdorini rejalashtirishda hududdagi aholi sonidan kelib chiqib taqsimlash nazarda tutilganligi **ma‘lumot uchun qabul qilinsin.**

2. Tashabbusli budget jarayonlarini o‘tkazish hamda moliyalashtirish tartibi to‘g‘risidagi Nizomga ilovaga muvofiq **o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin.**

3. Belgilansinki, o‘zini-o‘zi moliyalashtirish tizimiga o‘tganligini inobatga olgan holda 2025-yil 1-mavsumdan boshlab moliyaviy mustaqil bo‘lgan Oliy o‘quv muassasalarining Tashabbusli budget jarayonlarida ishtirok etishiga **ruxsat etilmaydi.**

4. Mablag‘lardan samarali foydalanish hamda ijtimoiy muammolarga ko‘proq e‘tibor qaratish maqsadida Tashabbusli budget jarayoni doirasida tashkilotlar tomonidan barcha turdagi avtomobillar, jamoat xavfsizligini ta‘minlashga oid jihozlar (radar, jamoat joylaridagi kuzatuv kameralari, “svetofor”), rahbar xodimlar uchun mebel jihozlarini xarid qilish **taqiqlanadi.**

5. **Maktabgacha va maktab ta‘limi hamda Sog‘liqni saqlash vazirliklari o‘n kun muddatda** Tashabbusli budget doirasida xarid qilinishi ruxsat etilgan tovarlarning aniq tavsiflarini aks ettirgan holda qayta shakllantirilgan jihozlar reyestirini **Iqtisodiyot va moliya vazirligiga** taqdim etsin.

6. Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan hamkorlikda budget tashkiloti xodimlarini majburiy ovoz berishga jalb etish holatlarining oldini olish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etsin hamda har mavsum yakuniga ko'ra Oliy Majlis Senatiga axborot kiritib borsin.

7. Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda O'zbekiston axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi mazkur qaror bilan Tashabbusli budget jarayoniga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarni aholiga yetkazish bo'yicha zarur choralar ko'rsin.

8. Mazkur Qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Budget va iqtisodiy masalalar qo'mitasi raisi E. Gadoyev zimmasiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi Senatining Raisi**



T. Narbayeva

Toshkent shahri,
2025-yil 13-yanvar,
KQ-34-V-sonli.

**“Tashabbusli budjet jarayonlarini o‘tkazish hamda moliyalashtirish
tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga kiritilayotgan o‘zgartish
va qo‘shimchalar**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati Kengashining 2024-yil 30-yanvardagi KQ-666–IV-son qarori bilan tasdiqlangan ““Tashabbusli budjet jarayonlarini o‘tkazish hamda moliyalashtirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga quyidagi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin:

1)6-band ikkinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“tuman (shahar)lar budjetlarida Tashabbusli budjet jarayoni uchun rejalashtirilgan mablag‘lar.

Bunda, har yili tuman va shaharlar budjetida **10 tadan kam bo‘lmagan**, ko‘pi bilan **30 ta** loyiha uchun yetarli mablag‘lar rejalashtiriladi hamda 10 tadan ortiq loyihalar uchun mablag‘lar tuman yoki shahar aholisining tegishli hududning aholi sonidagi ulushidan kelib chiqib taqsimlanadi;”;

beshinchi xatboshi chiqarib tashlansin.

2)9-band ikkinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“tuman (shahar) budjetlarida rejalashtirilgan mablag‘larning teng yarmi – birinchi mavsum uchun yanvar oyidan boshlab, qolgan qismi ikkinchi mavsum uchun may oyidan boshlab o‘tkazib beriladi;”

uchinchi xatboshi chiqarib tashlansin.